



TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



UBAYDIY VA UNING TURKIY DEVONI

Chimpo‘latova Sevara Alisherovna

Oriental universiteti Sharq tillari kafedrasи, O‘qituvchi, Mustaqil tadqiqotchi

E-mail: sevarachimpolatova@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Ubaydiy va uning adabiy merosi yoritiladi. Shoh sifatida u nafaqat siyosiy faoliyat yuritgan, balki ijodkor sifatida ham adabiy-madaniy muhitni shakllantirishga e’tibor qaratgan. Uning turkiy, forsiyda devonlari, arabiya she’rlari bor. Bu o‘z navbatida serqirra Ubaydiyning adabiy merosini chuqur o‘rganish va qadrlash zarurligini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar: *Ubaydiy, devon, turkiy devon, janr, ruboiy, o‘zbek mumtoz adabiyoti.*

Аннотация: В данной статье рассматривается Убейд и его литературное наследие. Будучи правителем, он не только вел политическую деятельность, но и, как творец, уделял внимание формированию литературно-культурной среды. У него есть диваны на турецком и персидском языках, а также стихи на арабском. Это, в свою очередь, указывает на необходимость глубокого изучения и оценки литературного наследия плодовитого Убейда.

Ключевые слова: Убейд, диван, турецкий диван, жанр, рубаи, узбекская классическая литература.

Abstract: *This article discusses Ubayd and his literary heritage. As a king, he not only carried out political activities, but also, as a creator, paid attention to the formation of a literary and cultural environment. He has divans in Turkish and Persian, and poems in Arabic. This, in turn, indicates the need to deeply study and appreciate the literary heritage of the prolific Ubayd.*

Keywords: *Ubayd, divan, Turkish divan, genre, rubai, Uzbek classical literature.*

Tarixdan badiiy asarlarning yozilish tarixi, bunga turtki bergan omillar, ularning tuzilishi, manbalari, tarqalish geografiyasi, ta’sir doirasi yuzasidan zamonaviy ilmiy qarash va usullarga asoslangan matnshunoslik va manbashunoslik tadqiqotlarini amalga oshirish alohida ahamiyatlidir. Zero, “...matnshunoslik, adabiy manbashunoslik, tilshunoslik, falsafa, madaniyat tarixi sohalarida milliy madaniy merosimizning hali o‘rganilmagan ko‘pgina qatlamlarini ochib berishga yo‘naltirilgan ilmiy tadqiqotlarga alohida e’tibor qaratish”¹ lozim. Bunda tadqiqotlar mazkur turdagи asarlarga xos jihatlar bo‘yicha ilmiy-nazariy xulosalarga asos bo‘lib xizmat qiladi. Shuningdek, ma’lum bir muallif asarlarining yozilish

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 25-maydagi “Qadimgi yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ‘ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2995-sonli Qarori – <https://lex.uz/docs/-3211987>





TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G'oyalar



sababi, tuzilishi, janr xususiyati kabi jihatlarini ilmiy asosda ko'rsatib berish ham muhim sanaladi.

Dunyo adabiyotshunosligida umuminsoniy g'oyalarni tarannum etgan mualliflar asarlarining tadrijiy takomili, qo'lyozma nusxalari, ulardagi matn farqlarining yuzaga kelish sabab va oqibatlarini o'rganib, ilmiy-tanqidiy matnlarini tuzish bilan bog'liq tadqiqotlar amalga oshirib kelinmoqda. Shuningdek, ijodkor merosining bosh maqsadi, ma'lum bir asarning yozilish davri faoliyatining qay pallasiga to'g'ri kelishi, hayoti va ijodi tajribalarini tadqiq etishga e'tibor qaratiladi. Bu kabi yondashuvlar muallif dunyoqarashi, ijodiyotining o'zagini tashkil etuvchi adabiy-estetik idealini belgilash va asarlarining so'nggi tahrirdan chiqqan matnnini tiklashda dolzarbdir.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, ajdodlarimiz merosini chuqr tadqiq etish bo'yicha ko'plab tadqiqotlar amalga oshirildi. So'nggi yillarda tilshunoslik sohasida insoniyat adabiy merosining ajralmas qismiga aylangan o'zbek xalqi yozma merosi ustida amalga oshirilgan tadqiqotlar nashri mazkur manbalarning badiiy va ilmiy qimmatini ko'rsatish barobarida, yosh avlodni ajdodlar merosiga vorislik, barkamol shaxs sifatida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. "Bizning havas qilsa arziydigan buyuk tariximiz bor. Havas qilsa arziydigan ulug' ajdodlarimiz bor..."². Bu borada shoh va shoir Ubaydiy merosini alohida qayd qilish lozim. Chunki u nafaqat davlat arbobi, balki yuksak badiiy did va ijodiy salohiyatga ega bo'lgan adib sifatida ham tanilgan. Ubaydiy o'z davrining mashhur shoirlaridan biri bo'lgan.

Shuningdek, Ubaydiy ijodi o'zbek adabiyoti tarixida muhim o'rinni egallaydi. Uning asarlari keyingi avlod ijodkorlariga katta ta'sir ko'rsatgan. Adabiyotshunoslar Ubaydiy merosini o'rganar ekanlar, undagi ijtimoiy fikr, milliy g'urur va estetik qadriyatlarni alohida ta'kidlaydilar. Shu bois ham Ubaydiy nafaqat o'z davri uchun, balki bugungi kun uchun ham dolzarb bo'lgan boy ma'naviy meros egasidir.

Shoir "Ubaydiy", "Qul Ubaydiy", "Ubaydulloh" taxalluslari bilan turkiy, fors va arab tillarida ijod qilgan. Uning uchala tildagi devonlarini o'z ichiga olgan "Kulliyot" idir. Ubaydiy shohlik bilan bir qatorda ijodkorlikni ham davom ettiradi, ilm ahli uchun adabiy-madaniy muhitni shakllantirishga alohida e'tibor qaratadi. Uning bizgacha yetib kelgan eng katta asarlari jamlanmasi "Kulliyot"i vafotidan so'ng, Abdullaxon davrida, 1583-yilda Mir Husayn al-Husayniy tomonidan ko'chirilgan. Ushbu devon hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondida 8931 raqami ostida saqlanmoqda. "Kulliyot" uchala tildagi devonlarini o'z ichiga olgan. Turkiy devon tarkibida 310 g'azal, 430 ruboiy, 11 tuyuq, 18 masnaviy, 7 muammo, 2 yor-yor, diniy-tasavvufiy va axloqiy-didaktik ruhdagi "Omonatnama", "Shavqnama", "G'ayratnama", "Sabrnoma" manzumalari mavjud. Forsiy devon esa 163 g'azal, 418 ruboiy, 7 qit'a, 1 fard, 1 masnaviy, 1 tarje'band va 3 muammodan tarkib topgan. Arab tilidagi devoni esa 35ga yaqin g'azal, qit'a va fardlardan iborat. O'zbek

² <https://yuz.uz/uz/news/dunyon-i-asrash-qaygusi>





TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



mumtoz adabiyotida uchta tilda devon tuzgan yagona shoir ham aynan Ubaydiy hisoblanadi. Uning ijodida diniy-tasavvufiy g‘oya yetakchilik qiladi. U Ahmad Yassaviy asos solgan hikmatnavislik an’anasini davom ettirgan hamda yanada rivojlantirgan. Ubaydiydan 1786 baytdan iborat 220 dan ortiq hikmat yetib kelgan³.

Shuningdek, mazkur devon Ubaydiyning katta she’riy iste’dodidan darak beradi. Uning g‘azal va ruboilyari, qit’a va tuyuqlari o‘zbek she’riyatining katta yutuqlari bo‘lib, ular bir qancha o‘ziga xos xususiyatlarga, nozik uslub ko‘rinishlariga ega. Ubaydiy she’riyatida o‘ziga xoslikka, originallikka intilish ustun. Shoir she’riy uslubida soddalikka moyillik, o‘z fikrini mumkin qadar xalq tili bilan bayon etishga urinish muhim hisoblangan.

Ubaydiy hukmron sulola vakili bo‘lsa ham, uning hayot yo‘lini silliq, faqat zafarlardan iborat deb tasavvur etish to‘g‘ri emas.

G‘azallarining birida:

*Bir lahza ko ‘ngul o ‘lmadi beg ‘am zamonadin,
To ‘ydi zamona mendinu men ham zamonadin⁴*

deb tortgan nolasida zamonasining dardu-g‘ami, nizoyu fitnasidan ozor topganligi haqida fikrlar yozilgan. Shuning uchun biz Ubaydiyning o‘sha murakkabliklar va ziddiyatlarga to‘la davrdagi faoliyatida amaldorlik va hukmdorlikka intilishga nisbatan ma’naviy kamolotga intilish, she’riyat va ijodga intilish ustun bo‘lgan deb xulosa chiqarsak xato bo‘lmaydi.

G‘azal – sharq adabiyotida keng tarqalgan lirik janr. U arabcha so‘zdan olingan bo‘lib, “oshiqona so‘z, ishq izhor etish, ayollarni madh etish” kabi ma’nolarni anglatadi. “G‘azal” atamasi dastlab VIII-IX asrlarda arab she’riyatida paydo bo‘lgan. Uning hajmi 3 baytdan 19 baytgacha qilib belgilangan, ammo ba’zi o‘rnarda 21, hatto 27 baytli g‘azal namunalari ham uchrab turadi⁵. Ubaydiy ijodida g‘azal janrining judayam ajoyib namunalarini topish mumkin. G‘azal janriga xos bo‘lgan xususiyat – shaxsiy hissiyotlarini, ichki kechinmalarini ifodalash Ubaydiy ijodida ham chiroyli dalillar orqali ohib berilgan. G‘azalning tasavvufiy ma’no bilan boyitilishi shoirlarning tasavvuf ilmidan xabardor bo‘lishlikka chorlaydi. Bu orqali insonning ruhiy yo‘li, ilohiy muhabbat va o‘zini anglash masalalari yoritib beriladi.

Shoирning devondagi ruboilariga nazar solsak, Ubaydiy qalamiga mansub ushbu ruboiy tili nihoyatda sodda tilda yozilgan bo‘lib, hech bir qiyinchiliksiz mazmunini anglash mungkin. Bu jihat shoирning yozish uslubi xalqona tilga nihoyatda yaqin ekanligidan dalolat beradi.

*Seningdek bu jahonda g‘amguzorim yo ‘qtur,
Ko ‘rmay seni bir yerda qarorim yo ‘qtur,
Ey yor, demaki o ‘zga yoring bor emish,
Orim sen erursen, o ‘zga yorim yo ‘qtur.*

³ Rajabov Q., Ochilov E. Ubaydullaxon. – Toshkent: 2011. – B.15-16.

⁴ Abduqodir Haymetov.Ubaydiy.Sharq yulduzlarji jurnali 10-soni T:1991.

⁵ Носиров О. Ўзбек адабиетида газал. – Тошкент: Адабиет ва саъат, 1972. – Б.38.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



Ubaydiyning ushbu ruboysi a-a-b-a qofiyalanish tizimida yozilgan bo‘lib, o‘ziga xos ritmik ohangdorlikni yuzaga keltirgan. Ruboilar ko‘pincha taqdir, insonning ma’naviy qarashlari kabi masalalarini o‘z ichiga oladi. O‘zining qisqalikda to‘liq fikrni ifodalash xususiyati sababli, ruboilar ko‘pincha chuqur va ma’noli bo‘ladi. Bu jihatni ko‘plab ruboilar misolida ham ko‘rib o‘tish mumkin.

*Majnun ishidin ul kishikim ogohdur,
Ushshoq orasinda Ubaydullohdur.
Payvasta junun ahli erur hamroh anga,
Ul rahbar erur alarg‘ayu, ham shohdur.*

Shoir bu ruboysi orqali o‘zining holatini ham aks ettirgan, ya’ni majnunlikdan ogoh ekanligi hamda oshiqlar orasida Ubaydulloh nomi bilan tanilganligini aytib o‘tadi. Va yana shuni ta’kidlab o‘tadiki, unga hamroh bo‘lgan oshiq ahliga ham rahbar, ham shohman deya o‘zini e’tirof etadi. Ruboiy janrining o‘ziga xos xususiyatlardan biri shoir o‘zining ijtimoiy holati, hayoti, turmush tarzidan kelib chiqqan holda, ayni shu xususiyatlarga urg‘u bergen holda uni qog‘ozga tushuradi.

Shu o‘rinda aytib o‘tish joizki, xalqimiz orasida keng tarqalgan “Diydor shirin, diydor g‘animat” kabi iboralarning keng qo‘llanilishi mumtoz adabiyot namunalarida ham o‘z aksini topgan. Xususan, Ubaydiy ijodida ko‘p o‘rinlarda folklor unsurlarini uchratishimiz mumkin. Xulosa qilib aytganda, mumtoz adabiyotimiz yuksak tafakkur, boqiy qadriyatlar jamlanmasi, boy madaniy merosni o‘zida mujassam qilganligi bilan ajralib turadi. Bunday merosni avlodlarga yetkazib qoldirishda ulkan hissa qo‘shgan shoh hamda shoir Ubaydiy ijodi ham mumtoz adabiyotda o‘z o‘rniga ega. Uning tarkibiga kiruvchi turkiy, arabcha, forscha devonlar tarkibidagi turli xil janr namunalari mumtoz adabiyotimiz tarixida o‘sha janr rivoji uchun katta hissa qo‘shgan. Ubaydiy o‘zining turkiy tilida yozgan g‘azallarida mumtoz adabiyotga xos obrazlar va badiiy vositalardan mahorat bilan foydalangan. Masalan, uning mashhur baytlaridan birida shunday deyiladi:

*“Ko‘nglumni giriftor ayladi bir zulfing uzugi,
Ko‘z yoshim anga daryo bo‘lib, aylandi kechugi.”*

Bu baytda shoir “zulf”, “ko‘ngul”, “ko‘z yoshi” kabi an’anaviy timsollar orqali o‘zining ichki kechinmalarini chuqur ifodalaydi. Ubaydiy ijodi, ayniqsa, uning “Kulliyot”i tarkibidagi uch tilli devonlari (turkiy, arabiylar va forsiy) o‘zbek mumtoz adabiyotining ko‘p tillilik an’anasini va janr boyligiga ulkan hissa qo‘shgan. Uning asarlari orqali o‘sha davrdagi adabiy-estetik qarashlar, tasavvufiy tafakkur va ijtimoiy-hayotiy kechinmalarni chuqur anglash mumkin⁶. Shu boisdan, Ubaydiy ijodi nafaqat tarixiy-adabiy nuqtayi nazardan, balki zamonaviy kitobxon uchun ham dolzarb va ibratlidir. Shoirning devoni orqali biz XVI asr xalqining holati, ijtimoiy muammolari, urf-odatlari va ma’naviy dunyosi haqida tasavvur hosil qilamiz. Shu boisdan Ubaydiy ijodi, ayniqsa uning turkiy devoni – o‘zbek adabiyoti va umuman turkiy xalqlar madaniy merosining bebahो boyligidir.

⁶ Исламатулла Иброхимов. Ўзбек адабиёти тарихи. II-жилд. Тошкент: Ўқитувчи, 1995.- Б.183-184.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



Ubaydiy nafaqat tarixiy-adabiy nuqtayi nazardan, balki zamonaviy kitobxon uchun ham dolzarb va ibratlidir. Uning asarlarida xalqona ruh, insonparvarlik g‘oyalari, axloqiy-ibratlil mazmunlar mujassam bo‘lib, bugungi o‘quvchining ham qalbiga ta’sir ko‘rsatadi. Ubaydiy o‘z davrining muhim ijtimoiy muammolariga, inson axloqi, ma’naviy-ruhiy dunyosiga befarq bo‘lmagan va buni o‘z asarlarida aks ettira olgan ijodkordir. Shuningdek, xalq og‘zaki ijodidagina mavjud bo‘lgan “**yor-yor**” janrida ham 2 ta namunani yozganligi alohida e’tirofga loyiq. Ubaydiy bu janrni yozma adabiyotga olib kirgan kam sonli adiblardan biridir.

Masalan, quyidagi misralarda xalqona ifoda, kuy ohangi va ma’naviy-axloqiy tarbiya mujassam:

Misol:

*Kelinchak kelar el tomonga,
Oppoq ro ‘mol bosh tomonga.
Ko ‘ngli to ‘lib, yurak to ‘lqin,
Yor-yor aytar yosh tomonga.*

Ubaydiy ijodi xozirgi davr adabiyoti hamda hayoti uchun ham foydali va ibratlidir. Ayniqsa, “yor-yor” kabi xalqona janrda yozgan she’rlari uning ijodi naqadar boy va xalqga yaqin ekanini ko‘rsatadi.

Xulosa o‘rnida ta’kidlash joizki, Ubaydullaxon nafaqatadolatli va dono hukmdor, balki o‘z davrining iste’dodli shoirlaridan biri sifatida ham tarixda muhim o‘rin egallaydi. U davlat ishlarini yuritish barobarida ilm-fan, adabiyot va san’atga katta e’tibor bergen. Ayniqsa, uning “Ubaydiy” taxallusi bilan bitilgan adabiy merosi turkiy xalqlar adabiyotida o‘ziga xos o‘ringa ega. Shu boisdan ham Ubaydiy merosi nafaqat o‘zbek adabiyoti, balki barcha turkiy xalqlarning madaniy boyligi sifatida qadrlanadi. Uning asarları hozirgacha o‘qiladi, o‘rganiladi va yosh avlod tarbiyasida muhim manba bo‘lib xizmat qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Носиров О. Ўзбек адабиетида ғазал. – Тошкент: Адабиет ва саъат, 1972. – Б.38.
2. Исматулла Иброхимов. Ўзбек адабиёти тарихи. II-жилд. Тошкент: Ўқитувчи, 1995.- Б.183-184.
3. Alisherovna, C. L. S. (2024). ZAMAKHSHARI'S WORK" MUQADDAMATU-L-ADAB" AND THE EDUCATIONAL WORDS IN IT. ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION, 1(2), 261-264.
4. Chimpo‘Latova, Sevara Alisherovna (2021). CHET TILLARINI MASOFAVIY O‘QITISHDA INTERFAOLLIK MUAMMOSI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1 (7), 164-170.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



5. Чимпўлатова, С. А. (2024). МАҲМУД ЗАМАХШАРИЙНИНГ АРАБ ГРАММАТИКАСИГА ОИД “МУҚҚАДДАМАТУ-Л-АДАБ” АСАРИ. STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS, 1(3), 79-81.

6. Alisherovna, C. L. S., & Mucci, F. ARABIC LANGUAGE LEARNING RESOURCES FOR RUSSIAN SPEAKERS.

